

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI**

**“TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB
TA'LIMI” FAKULTETI**

“AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” KAFEDRASI

5350400– AKT sohasida kasb ta'limi bakalavr akademik
darajasini olish uchun

“Himoyaga ruxsat”

Kafedra mudiri

_____katta o'qit. Yakubjanova D.Q.

2019 yil “_____” _____

**Masofaviy o'qitishga mo'ljallangan o'quv materiallaridan Moodle
tizimida kurs yaratish mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi:	_____	Mirzayev A.S.
Ilmiy rahbar:	_____	Xoliyarova F.X.
Taqrizchi:	_____	Bozorov I.
XFX malahatchi:	_____	Xujanova D.

S A M A R Q A N D – 2019

MUNDARIJA

	Bet
KIRISH	3
1-BOB TA'LIMDA MASOFALI O'QITUVCHI PLATFORMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
1.1 O'qitish jarayonida qo'llaniladigan masofali o'qitish tizimlari va ularning xarakteristikasi.....	7
1.2 MOODLE masofaviy o'qitish tizimi va uning imkoniyatlari.....	11
1.3 MOODLE foydalanuvchilari.....	18
2-BOB FANNING O'QUV KURSINI TASHKIL ETUVCHI ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH	
2.1 O'quv kursi resurslari va ularning tavsifi	28
2.2 Elementlarni platformaga joylashtiradigan holda shakllantirish usullari.....	41
3- BOB "MAXUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI" FANINING ELEMENTLARINI MOODLE PLATFORMASIGA JOYLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH TASNIFI	
3.1 MOODLE platformasiga fan elementlarini joylashtirish yo'riqnomasi.....	50
3.2 MOODLE-ochiq kodli masofaviy ta'lim tizimida "Maxus fanlarni o'qitish metodikasi" fanining sahifasidan foydalanish tasnifi.....	61
3.3 Kompyuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidolari.....	67
XULOSA	71
ADABIYOTLAR.....	72

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'ymoqda. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi elektron o'quv-uslubiy majmualarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirish hamda yosh avlodni yuqori saviyada tarbiyalashni ta'minlash maqsadida ta'lim standartiga mos fanlar bo'yicha elektron o'quv kurslari yaratish muhim ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar qatoriga kiradi.

2017-2021 yillarda Harakatlar strategiyasi negizida ham ta'lim sifatini oshirish va dars jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilgan. Xususan Barcha oliy o'quv yurtlari yagona korporativ tarmoqqa birlashtirilgan. www.edu.uz, www.markaz.uz veb-saytlari ishga tushirilgan. Internet tarmog'ining milliy segmentida axborot resurslarni shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofik, barcha o'quv yurtlari veb-saytlari www.edu.uz axborot-ta'lim portaliga birlashtirilgan[1].

Vazirlar Mahkamasiga 2018–2020 yillarga mo'ljallangan hududlarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish dasturlarini va ustuvor loyihalarning manzilli ro'yxatini ishlab chiqsin va tasdiqlash vazifasi yuklatilmoqda.

Mazkur dasturda shu jumladan, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholining sifatli mobil aloqa, Internet tarmog'idan keng doirada foydalanishini ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmat ko'rsatish, turizm sohasida zamonaviy axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar

bazalarini joriy qilish, shuningdek, “aqlli” va “xavfsiz” shaharlar hamda hududlarni tashkil qilish ham nazarda tutiladi.[6].

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri bu ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq.

Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Modelni amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu boisdan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida “o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash” zarurati e'tirof etildi, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilandi”.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash usullari va mezonlarini o'z ichiga olgan Moodle platformasida «Maxus fanlarni o'qitish metodikasi» fanidan o'quv kursini yaratish masalasi ko'rilgan.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar yechiladi:

- “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan barcha materiallarni yig’ish.
- “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan yig’ilgan materiallarni Moodle platformasiga joylashtirish uchun tayyorlash.
- O’quv kursini sahifasini loyihalash. Ma’lumotlarni Moodle platformasiga joylashtirish. Nazorat uchun test savollarini joylashtirish.
- O’quv kursi uchun foydalanuvchilar guruhini yaratish.
- O’quv kursidan foydalanish yo’riqnomasini keltirish.

Ishning yangiligi. Moodle platformasida “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan o’quv kursi yaratildi va tizimga talabalar foydalanishi uchun joylashtirildi.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishlab chiqilgan o’quv kursidan, darsdan tashqari vaqtda talabalarning fanni mustaqil o’rganishida va ularni bilim darajasini nazorat qilishda foydalaniladi.

Moodle platformasida “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan o’quv kursini yaratishda moodle.samtuit.uz manzildagi platformadan, bir necha xil amaliy dasturlardan hamda ushbu fan bo’yicha yaratilgan o’quv uslubiy majmua materiallaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi va tuzilishi. Ishning matni komp’yuterda yozilgan 73 bet hajmidan iborat bo’lib, uning strukturasi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati tashkil qiladi.

1-bob ta’limda masofali o’qituvchi platformalarning o’ziga xos xususiyatlariga bag’ishlangan bo’lib, unda ta’lim jarayonida qo’llaniladigan masofali o’qitish tizimlarining xarakteristikasi, Moodle o’qitish tizimi va uning imkoniyatlari va Moodle foydalanuvchilari tasnifi keltirilgan.

2 - bobda fanning elektron o’quv kursini tashkil etuvchi komponentlari, ularni yig’ish, shakllantirish va joylashtirish uchun tayyorlash kabi ma’lumotlar keltirilgan.

3 - bob “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanining elementlarini Moodle platformasiga joylashtirish va ulardan foydalanish tasnifiga mo’ljallangan bo’lib,

Moodle platformasiga fan elementlarini joylashtirish yo'riqnomasi, Moodle-ochiq kodli masofaviy ta'lim tizimida "Maxus fanlarni o'qitish metodikasi" fanining sahifasidan foydalanish tasnifi, Moodle platformasida fan sahifasiga talabalar guruhini tashkil qilish va nazorat qilish va komp'yuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalari bayon etilgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishida olingan asosiy natijalar va takliflar keltirilgan.

Adabiyotlar qismida bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

1 -BOB. TA'LIMDA MASOFALI O'QITUVCHI PLATFORMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. O'qitish jarayonida qo'llaniladigan masofali o'qitish tizimlari va ularning xarakteristikasi

Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovasiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonini axborotlashtirishda asosiy diqqat samarali masofali o'quv kurslari ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda tekstografik mahsulotlar o'rniga interaktiv, multimedia manbalariga boy elektron resurs qabul qilinmoqda.

Axborotlashtirish orqali ta'lim samarasi va sifatini oshirish uchun yangi darsliklar bir qancha innovasion sifatlarga ega bo'lishi kerak, shuning uchun elektron resurs sifatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday ta'lim manbasi kabi elektron resurs ham sifatlari majmuidan kelib chiqqan holda baholanishi lozim. Bunda baholashni an'anaviy va innovasion turlarga bo'lish muhimdir[5].

- Davlat ta'lim standartlari, ta'limning namunaviy va ishchi dasturlariga mos kelishi;
- Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ilmiy asoslanganligi;

- Yagona metodikaga mos kelishi («osondan qiyinga qarab borishi», materiallarni taqdim etishda ketma-ketlikka rioya etilishi);

- Dalillarga oid xatolar, axloq qoidalariga xilof, etikaga to'g'ri kelmaydigan tarkibiy qismlarga ega bo'lmasligi; va h.k[10]

Elektron resursni baholashda an'anaviy usullar albatta ishlatiladi, bu usullar bilan baholash jarayoni yaxshi ishlab chiqilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, kitob faqat axborot olishni ta'minlaydi. Elektron o'quv kursi esa olinayotgan axborotning tasavvur orqali xotirada saqlanishi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda insonning kun bo'yi qabul qiladigan axborotlari shunchalik ko'pki, ularni saqlab qolish juda mushkul. Shu sababli axborotni tasavvur qilgan holda qabul qilish xotirada saqlanishini osonlashtiradi. Elektron o'quv kursi esa inson xotirasida axborotlarni yaxshi saqlanuvchi, vizual ko'rinishda uzatadi. Bir qancha soha uchun multimediali o'quv kursi ishlab chiqilgan. Ularning sifati pastligi, muayyan tartib – qoidaga asoslanmaganligi sababli foydalanish keng miqyosda emas yoki tezda yaroqsiz holatga keladi. Elektron o'quv majmuaini tayyorlashda ulardan foydalanish davomiyligini hisobga olish zarur[10].

Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etmasdan ta'lim tizimini taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Bu borada zamonaviy oliy ta'lim tizimi axborot-kommunikasiya texnologiyalarini bo'lajak mutaxassislar kasbiy faoliyatining muhim vositasi sifatida qo'llash bo'yicha vazifalarni ilgari surmoqda. Ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida axborot kommunikasion texnologiyalaridan foydalanishning afzal va qulay imkoniyatlarni shart-sharoitlarini yaratish va o'quv jarayoni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositalar yaratish, multimediali o'quv qo'llanmali, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta'lim (MT) – bu ta'lim oluvchiga o'qitiladigan materialning asosiy hajmini berishni, ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi orasida interaktiv muloqotni amalga oshirishni, ta'lim jarayonida o'qitiladigan materialni mustaqil

o'rganish uchun o'quvchiga imkoniyat yaratishni ta'minlaydigan texnologiyalar to'plamidir.

Masofaviy ta'lim – aholini keng qatlami uchun maxsus informatsion ta'limga qaratilgan bo'lib, masofadan turib o'quv axborotlarini almashish vositalari (yo'ldoshli aloqa, televideniya, radio, kompyuter va boshqalar) asosida ishlovchi ta'limga qaratilgan xizmatlar kompleksi hisoblanadi.

Shubxasiz, masofaviy ta'lim ta'limning barcha muammolarini xal qila olmaydi, lekin yangi informatsion texnologiyalarni qo'llash, oliy ta'limning bir qator muammolarini echish imkonini beradi. .

- ✓ O'qish uchun ketadigan mablag'ni tejash;
- ✓ O'qish xususiyatini o'zi tanlash imkoniyati;
- ✓ O'qish uchun xududiy cheklovning yo'qligi;
- ✓ O'qish turi va vositalarining xilma-xilligi;
- ✓ YAngi informatsion texnologiyalar bo'yicha qo'shimcha bilim olish;
- ✓ YAqin o'quv muassasalarida mavjud bo'lmagan fanlarni o'rganish;
- ✓ Nufuzli universitetlarning ta'limga qaratilgan dastur va kurslaridan foydalanish.




1-rasm. Masofaviy ta'lim tuzilmasi

Masofaviy ta'lim vositalari. Masofaviy ta'limda ta'lim jarayonida kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yangi axborot texnologiyalarni qo'llashga asoslangan an'anaviy va innovatsion ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Bu zamonaviy ta'lim tili bilan "ta'limning dasturiy-texnik vositalari" deb yuritiladi.

Masofaviy ta'limni o'tkazish uchun joriy qilinadigan dasturiy-texnik vositalar quyidagi pedagogik vazifalarni xal etishi zarur:

- Mustaqil o'qish va kompyuter testlaridan o'tish imkoniyati;
- O'quv materialini etkazishni qulay sharoitlarini ta'minlash;
- O'quvchilar bilan ishlash va o'zaro munosabatni jamoaviy muloqot asosida olib borish.

Tarmoq texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlaridan o'qituvchi va o'quvchi bilan o'zaro bog'liklikdagi har xil interaktiv darajali va o'quvchilarni o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi. Tarmoq texnologiyalari asinxron va sinxron turlarga bo'linadi.



2-rasm. Masofaviy ta'lim texnik vositalari

Hozirgi vaqtda axborotli kommunikasion tarmoqlar, shu jumladan internet-foydalanuvchilar sohasi, foydalanuvchilari bilan o'zaro interaktiv aloqa istiqbolli hisoblanadi.

1.2. MOODLE masofaviy o'qitish tizimi va uning imkoniyatlari

Ta'limni boshqarish tizimi – o'quv faoliyatini boshqarish tizimining asosi (inglizcha *Learning Managment System*) bo'lib, umumiy kirish huquqini ta'minlaydigan o'quv on-layn materiallarni ishlab chiqish, boshqarish va tarqatish uchun qo'llaniladi. Vizual o'quv muhitida ta'lim berish ketma – ketligi asosida materiallar yaratiladi. Tizim tarkibiga turli ko'rinishdagi individual materiallar, kichik guruhlarda ishlash uchun loyihalar va barcha talabalar uchun mazmundor hamda kommunikativ komponentalarga asoslangan o'quv elementlari kiradi.

Mashhur ta'limni boshqarishga asoslangan tizimlarga quyidagi tizimlarni kiritish mumkin: Moodle, ILIAS, aTutor, Blackboard Learning System, CCNet, Claroline, Desire2Learn, Dokeos va boshqalar [8].

Moodle – bu o'qituvchilar tomonidan onlayn-kurslarni yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan sayt tarkibini boshqarish tizimi (Content Management System - CMS) dir. Uni ko'pincha e-learning tizimlarni o'qitishni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems - LMS) yoki virtual o'qitish vositasi (Virtual Learning Environments - VLE) deb ham atashadi [8].

Moodle – bu alohida onlayn-kurslar kabi, ta'lim veb-saytlarini ishlab chiquvchi instrumentlar sohasidir. Loyiha asosida sosial konstruktivizm nazariyasi va uni o'qitishni ishlatish yotadi.

Moodle avtori - Martin Dougiamas. Universitetni Computer Science va Education mutaxassisligi kursni tugatgandan keyin, u "The use of Open Source software to support a social constructionist epistemology of teaching and learning within Internet-based communities of reflective inquiry" mavzusidagi dissertasiyasini himoya qildi. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali ta'limni qo'llab – quvvatlash platformasini yaratish g'oyasi unda 1999 yilda Curtin University (Avstraliya) universitetida WebCT tijorat platformasi bilan ishlash tajribalaridan kelib chiqdi. Moodle keng tarqalgan WebCT va BlackBoard tijorat e-learning platformalarining o'rnini bosish uchun emas, balki o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida yaratilishi kerak edi. Ammo, Moodle

arxitekturasi va bu platformaga qo'yilgan prinsiplar shunchalar omadli bo'ldiki, uni jahon hamjamiyati tan oldi.

Bu bepul tarqaladigan dasturiy majmua o'zining funksional imkoniyatlari, o'rganishdagi soddaligi va ishlatishdagi qulayligi bilan elektron o'qitish tizimlaridan foydalanuvchilarning ko'pgina talablarini qanoatlantiradi.

Moodle masofaviy sohada o'qitish jarayonini to'la qo'llab-quvvatlash uchun keng doiradagi imkoniyatlarni beradi – o'quv materiallarini turli usullarda berish, bilimlarni tekshirish va o'zlashtirish nazorati.

Hozirda Moodle tizimini dunyoning ulkan universitetlari o'qitish uchun ishlatishmoqda.

Moodle MO'T dunyoning 200 davlatida 70 tildagi 2 mln. ga yaqin ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar, 46 ming ta'lim portallariga ega va 300 dan ziyod dasturchilarni birlashtiradi[8].

Moodle (<http://www.gnu.org/copyleft/gpl.html>) GPL lisenziyasi ostida (http://www.opensource.org/docs/definition_plain.html) ochiq joriy kodi bilan dasturiy ta'minot kabi tarqalmoqda.

Ochiq dasturiy kodli Moodle ga o'zgartirishlar kiritish, yaxshilash, modifikasiyalash uchun <http://www.moodle.org> manzil bo'yicha kirish mumkin.

Moodle ni ishlatish strategiyasi, filosofiyasi bo'yicha qo'shimcha axborotlarni <http://thinkingdistance.org/> manzil bo'yicha olish mumkin.

“Moodle” so'zi – bu “Modular Object - Oriented Dynamic Learning Environment” so'zining abbreviaturasidir.

Rus tilida “Моодус” (Модульная объектно-ориентированная динамическая управляющая среда) nomlari ham qo'llaniladi.


Moodle Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware operasion tizimlarida va PHP ishlatilishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy boshqa tizimlarda ham modifikasiyalarsiz qo'llanilishi mumkin. Ma'lumotlar MySQL va PostgreSQL ma'lumotlar bazasida saqlanadi, ammo ma'lumotlar bazasini boshqarishning tijorat tizimlari ham ishlatilishi mumkin [9].

Moodle oson vositalar yaratish imkoniyatiga ega. Yangi versiyaga o'tishda qiyinchilik va yangilanishlar kelib chiqmaydi.

Moodle MO'T ning yangi versiyalarini <http://www.moodle.org> dan olish mumkin.

Kursning tashqi ko'rinishi va navigasiya

Sahifaning yuqori qismida saytning logotipi va siz tizimda ro'yxatdan o'tgan ism tasvirlanadi.



Quyida sayt iyerarxiyasida joriy sahifa joyini ko'rsatadigan navigasiya paneli tasvirlanadi. **TATU SF** va **Moodle** – bu sayt bosh sahifasining va kursning mos nomlarining qisqartirilgan nomlaridir. Menyuning bu elementlari havolalar hisoblanadi, qayerdagi ularni bosib yuqoridagi iyerarxik darajalar sahifalariga o'tish mumkin:






Bu panel yordamida siz kursning qaysi bo'limida ekanligingizni bilishingiz va saytning yuqorida turgan ixtiyoriy bo'limiga o'tishingiz mumkin.

Navigatsiya panelining quyi qismida sahifa uchta ustunga bo'linadi. Sahifa chetlaridagi ustunlarda bloklar, sahifaning o'rtasidagi qalin ustunni kurs bo'limlari egallaydi.

Bloklar

Blok – bu umumiy belgilar bo'yicha birlashadigan kurs bilan ishlaydigan havolalar va boshqa vositalar guruhidir.

Foydalanuvchi nomidan o'ng tomonda joylashgan tugma yordamida blok tarkibini kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin. Blok nomi har doim ko'rsatiladi.



Kurs bo'limlari

Kurs bo'limi – nomga ega bo'lgan va kursning resurslari va elementlarini o'z ichiga oladigan “struktura” va “kalendar” formatiga ega bo'lgan o'quv kursi fragmenti. Odatda bo'lim bitta mavzu bo'yicha materiallarni o'z ichiga oladi.

Bo'limlar kursning bloklari orasida sahifaning o'rtasidagi ustunda joylashgan bo'ladi. Ularning ko'rinishi o'qituvchi tomonidan berilgan kurs formatidan bog'liq holda farq qilinadi[8].

Ko'pincha format-struktura qo'llaniladi.


O'qituvchi bitta bo'limni joriy deb olib, unda bu bo'lim uning chetlari bo'yicha yo'l – yo'l chiziq bilan ajratiladi.

Bo'limlarda kursning resurslari va elementlari joylashadi.

Sharh tipli resurs o'zida mos holda bo'lim doirasida joylashgan matn va grafiklarni tasvirleydi.

Qolgan resurslar va aktiv elementlar resurs yoki element tipini ko'rsatuvchi nom va grafik tasvirdan iborat havola ko'rinishida beriladi. Bu havolalarni bosish orqali kursning mos resursini yoki topshirig'ini ochish mumkin.

Har bir bo'lim alohida doirada tasvirlanadi.



Yuqori bo'lim nomerga ega emas va har doim sahifada tasvirlanadi. Bu yerda odatda, kurs haqidagi asosiy axborot joylashadi: fan nomi, soatlar hajmi, o'qituvchilar familiyasi, ishchi dastur va kursga tegishli boshqa materiallar.

Bu bo'limda o'chirish mumkin bo'lmagan, ammo talabalardan yashirish mumkin bo'lgan kursning yangiliklar forumi joylashadi (buni aktiv kursda bajarish tavsiya etilmaydi!).

Boshqa kurslar nomerlangan. Bo'lim nomeri uning chap yuqori burchagida tasvirlanadi. Nomerlangan bo'limlar soni o'rnatilgan kursning **Bo'limlar yoki haftalar soni** parametri bilan beriladi. (4.1. Kursni o'rnatish bo'limiga qarang).




Agar nomerlangan bo'limlar ko'p bo'lsa, u holda sahifa bir muncha uzun bo'lib berilib, u har doim ham o'qishga yengillik tug'dirmaydi.

Qo'shimcha, agar sizda Internet bilan ulanishning tezkor kanali bo'lmasa, u holda bu sahifa juda sekin yuklanadi.

Shuning uchun foydalanuvchiga tanlash imkoniyati berilgan: sahifada barcha nomerlangan bo'limlarni yo bir vaqtda yoki bo'lmasa bitta bo'lim bo'yicha tasvirlash. Tasvirlashning bir rejimidan boshqa rejimiga o'tish har bir nomerlangan bo'limning o'ng chetki ramka yonida joylashgan tugmani bosish bilan amalga oshiriladi ( - barcha bo'limlar,  - faqat berilgan bo'lim).

Agar bir bo'lim bo'yicha tasvirni tanlagan bo'lsangiz, u holda bir bo'limdan boshqasiga o'tish quyida tasvirlangan bo'limda joylashgan ... **ga o'tish** ro'yatmenyu yordamida amalga oshiriladi.



Boshqa bo'limga o'tish **Bo'limlarga havola** bloki yordamida ham bajarilishi mumkin (agar u sahifada mavjud bo'lsa):



Interfeys tili

Moodle interfeys tili bloklar nomi, tizimli xabarlar, havolalar, yordam fayllarining tili va b. larga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi tizimli sozlashni aniqlaydi.

moodle.samtuit.uz saytida uch til aniqlanadi:

- Ingliz
- Rus
- O'zbek



Sayt to'liq holda rus va ingliz tillarida ishlaydi ammo o'zbek tili interfeysi endi shakllantirilayapti.

Moodle interfeysining shu tillarda berilgan namunasi quyida keltirilgan.

Foydalanuvchi o'zi uchun uchta mumkin bo'lgan tildan birini tanlash imkoniyatiga ega. O'qituvchi kursda sozlangan kerakli tilni tanlab, o'zining kursining tilini aniqlashi mumkin:

Kurs tili jimlik qoidasiga ko'ra, "majburiy emas", ya'ni foydalanuvchi uni o'zgartirishi mumkin.



E'tibor qiling! Sayt tili, ya'ni kurs bo'limlarining tarkibi (resurslar, elementlar nomi, hujjatlar tili va sh.o'.) interfeysning tanlangan tiliga bog'liq emas[8].

1.3. MOODLE foydalanuvchilari

Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish

Kurs qatnashchilari (o'qituvchilar ham, talabalar ham) saytning ro'yxatga olingan foydalanuvchilari bo'lishi kerak.

Moodle tizimi foydalanuvchilarni ro'yxatga olishning bir necha usullarini qo'llashga ruxsat beradi: elektron pochta bo'yicha tasdiqdan o'tkazish bilan o'z – o'zini ro'yxatdan o'tkazish (jimlik qoidasiga ko'ra amalga oshiriladi), administrator orqali ro'yxatdan o'tish, LDAP ni qo'llash va b.




moodle.samtuit.uz saytida filial o'qituvchilarini administrator berilgan anketa bo'yicha ro'yxatdan o'tkazadi.




Filial talabalarini ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ro'yxatdan o'tgan o'quv kursi o'qituvchilari ega.

Saytdan faqat TATUSFning barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qiydigan talabalar ro'yxatdan o'tishi mumkin, chunki foydalanuvchilarni ro'yxatga olishda o'qituvchilar talabalar ro'yxatini shakllantirilgan ma'lumitlar bazasidan oladi.

Ro'yxatdan o'tish uchun kirish sahifasidagi mos maydonlarga o'zingizning login va parolingizni kiriting:



Foydalanuvchi birinchi marta saytga kirganida saytning foydalanuvchiga qo'ygan talablariga o'z roziligini bildirishi kerak:




Foydalanuvchi profili – shaxsiy kartochka

Saytdagi foydalanuvchi haqidagi barcha ma'lumotlar uning shaxsiy kartochkasida saqlanadi.

Saytning ixtiyoriy sahifasida o'zining familiyasi va ismiga bosib, foydalanuvchining shaxsiy axborotini ko'rishi va o'zgartirishi mumkin:



Foydalanuvchi haqidagi ilovada siz o'zingiz haqidagi axborotni boshqa foydalanuvchilar qay holda ko'rayotganligi ko'rinishida ko'rishingiz mumkin:



Bu sahifada ehtiyojga qarab, parolingizni o'zgartirishingiz mumkin.

Axborotni tahrirlash ilovasi o'zingiz haqidagi axborotni o'zgartirishga ruxsat beradi.

Ko'pgina maydonlar tushunarli berilgan bo'lsa, ayrimlari esa alohida e'tiborni talab etadi.



Ism: talabalar o'zining ismini, o'qituvchilar esa – ism va familiyasini kiritadi.

Familiya: foydalanuvchi familiyasi.

e-mail manzili: zarur maydon.



Foydalanuvchilar real pochta qutisiga ega bo'lishi kerak.

e-mail ni ko'rsatish: kursda e-mailingiz ko'rsatish va yashirish imkoniyati mavjud. Uni shunday qurishingiz mumkinki, barcha foydalanuvchilar (mehmonlarni qo'shgan holda ham) elektron manzilingizni ko'rishi mumkin yoki faqat talabalar uni ko'rishi mumkin yoki hech kim uni ko'rmaydi.

Abbosjon Mirzaev

▼ Umumiy ma'lumot

Ism

Abbosjon

Familiya

Mirzaev

e-mail

aktkt401-15-6@samtfuit.uz

e-mail ni ko'rsatish

Faqat kursning boshqa tinglovchilariga ⇅

Shahar

Mamlakatni tanlang

Mamlakatni tanlang...

Vaqt sohasi (zona)

Server timezone (Osiyo/Samarqand) ⇅

Ta'rifi

?

▼ User picture

e-mail faollashtirilgan: ruxsat etilgan ( o'qituvchi uchun – zarur!) yoki pochta qutingiz kerak.

Jo'natiladigan daydjest tipi: bu parametr sizga elektron pochta bo'yicha forumlar xabarlarini olish usulini tanlashga ruxsat beradi.

- **Daydjestsiz** – forumning bitta xabariga bitta xat. Siz forumda yaratilgan barcha mavzularni to'liq olishingiz mumkin.
- **To'liq** – kuniga barcha xabarlarni o'z ichiga olgan xat. Elektron pochtaning bitta xatida sizga forumda bajarilgan barcha yozilgan xabarlar yuboriladi.

- **Mavzular** – elektron pochta obzori bilan xat yuboriladi, unda sizga yuborilgan forum xabarlarining faqat mavzulari bo'ladi.

Forumga avto-obuna bo'lish: bu vosita sizga elektron pochta yordamida forumlarda paydo bo'ladigan xabarlar nusxalarini olishga ruxsat beradi. Agar siz forumga obuna bo'lgan bo'lsangiz, u holda tizim sizga yangi xabarlar yuborib turadi.

Forumlarni kuzatish: forumlarda o'qilmagan xabarlarni belgilash yoki belgilamaslik.

Matnni tahrirlash uchun: "HTML-muharrirni ishlatish" (tavsiya etiladigan qiymat) – matnlarni tahrirlashda ko'p funksionalli operatsiyalarga ruxsat beradi, ammo zamonaviy brauzerlarni talab etadi. Agar brauzeriniz matnni tahrirlashga ruxsat bermasa, "Stadart web-shakllarni ishlatish" so'rovini bering.

Ekran kuzatuvchisi: tushunarsiz funksiya! Tavsiya etiladigan qiymat – yo'q.



Vaqt zonasi: "Serverda vaqt" qiymatini o'zgartirmang.

Ma'qul ko'riladigan til: interfeys tilini tanlashga ruxsat beradi.



Ta'rif: Zarur maydon! O'qituvchi o'zining lavozimi va kafedrasini, talaba esa – o'quv guruhini ko'rsatishi kerak. Ixtiyoriy shakldagi qo'shimcha axborotga ruxsat beriladi. Bu esa sizning o'zingizga bog'liq.

Joriy tasvir: fotorasmni qo'yish talabalar uchun – ixtiyoriy, o'qituvchilarga esa zarur (talabalar imtixon vaqti tanishi uchun).

100×100 piksel o'lchamli grafik jpg va png-fayl optimal hisoblanadi.



moodle.samtu.uz portalida boshqa tasvirlarni ishlatish man etilgan!

Keyin **Kengaytirilgan sozlashlarni ko'rsatish** tugmasini bosishdan keyin keladigan **qo'shimcha sozlashlar** keladi.

Picture description	
▼ Ism haqida qo'shimcha ma'lumotlar	
First name - phonetic	
Surname - phonetic	
Middle name	
Alternativ ism	
► Interests	
▼ Uncha shart emas	
Veb-sahifa	
ICQ (number)/raqami	
Skype ID	
AIM ID	
Yahoo ID	
MSN ID	
Individual raqam(number)	
Idora (muassasa) (Tashkilot)	
Bolam	
...	


 Bu yerda o'qituvchilar ish joyi telefonini va kafedra joyini – **manzil** maydoni – ko'rsatishlari zarur.

 To'ldirgandan keyin **Saqlash** tugmasini bosish esdan chiqmasin!

 Foydalanuvchi ixtiyoriy vaqtda o'zi haqidagi axborotni tahrirlashi mumkin[8].

Foydalanuvchi parolini o'zgartish

Parolingizni o'zgartirish uchun saytning ixtiyoriy sahifasida foydalanuvchi ismini bosishingiz kerak:



Keyin “Foydalanuvchi haqida” zakladkasini tanlang va **“Parolni o’zgartiring”** tugmasini bosing.

[Uy sahifam](#) / [Preferences](#) / [User account](#) / [Parolni o'zgartirish](#)

Parolni o'zgartirish

Foydalanuvchi nomi aktkt401-15-6

The password must have at least 8 characters, at least 1 digit(s), at least 1 lower case letter(s), at least 1 upper case letter(s), at least 1 non-alphanumeric character(s) such as *, -, or #

Joriy parol 0

Yangi parol 0

Yangi parol (takrorlash) 0

[O'zgartirishlarni saqlash](#) [Bekor qilish](#)


Joriy parolni kiriting, keyin – yangi yozuvni kiriting (ikkita maydonga) va **“Parolni o’zgartirish”** tugmasini bosing.

 **Parol sifatida faqat lotin alfaviti va/yoki raqamlar ishlatilishi mumkin!**

Joriy parol		
Yangi parol		
Yangi parol (takrorlash)		

[O'zgartirishlarni saqlash](#) [Bekor qilish](#)

Agar siz login va parolni unutgan bo'lsangiz, u holda yangi parolni ko'rsatish funksiyasidan foydalanish mumkin. Buning uchun kirish sahifasiga **Saytga kirishga yordam bering!** tugmasini bosing:



Ochilgan oynada o'zingizning loginingiz yoki elektron pochtangizni kiriting:

Восстановление забытого пароля

Для сброса пароля укажите ниже Ваш логин или адрес электронной почты. Если Ваша учетная запись есть в базе данных, на Ваш адрес электронной почты будет отправлено письмо, содержащее инструкции по восстановлению доступа.

Поиск по логину

Логин

[Найти](#)

Поиск по адресу электронной почты

Адрес электронной почты

[Найти](#)

Tizim avtomatik ravishda elektron pochtaga yangi parolni yuboradi.

Moodle da bloglar

Blog (ingl. **web log** dan blog, “tarmoq jurnali yoki hodisalar kundaligi”) – bu doimiy qo’shiladigan yozuvlar, tasvirlar va multimediyalardan iborat tarkibli veb-sayt. Bloglar uchun vaqt qiymatli uzun bo’lmagan yozuvlar xarakterli.

Blogning an’anaviy kundalikdan farqi foydalanuvchi sohasi shart qilib qo’yiladi, ya’ni bloglar odatda tarmoqning aniq foydalanuvchiga ruxsat etilgan bo’ladi. Bloglar uchun kiruvchilar uchun mulohazalarni chop etish imkoniyati xarakterli. U blogni elektron pochta, yangiliklar guruhi, veb-forumlar va chatlar bilan bir xil tarmoqli muloqot sohasi hisoblaydi.

Moodleda blog – foydalanuvchining o’z fikr va mulohazalarini kiritadigan shaxsiy kundaligi hisoblanadi.

Bu kundalikdagi yozuvlar boshqa foydalanuvchilarga ochiq yoki shaxsiy bo’lishi mumkin.

Bloglarga ruxsatli kirish rejimi butun sayt uchun administrator tomonidan o’rnatiladi:

- Saytning barcha foydalanuvchilari barcha bloglarni ko’rishi mumkin. **Bu rejim moodle.samtuit.uz saytida ishlatilgan.**
- Blogga kirish imkoniyatini shunday cheklash mumkinki, unda foydalanuvchilar faqat o’zining kursining qatnashchilari yoki o’zining guruhi qatnashchilari blogini ko’rishi mumkin.
- Saytdagi bloglar tizimi administrator tomonidan to’liq ta’qiqlanishi mumkin.

Blogning har bir yozuviga kirish uning muallifi tomonidan aniqlanadi.

 Belgilang: blog yozuviga aniq ruxsat berish foydalanuvchi o’zining yozuvi uchun beradigan variantlardan farq qiladi – “Siz uchun (qo’lyozma)” yoki “saytning barcha foydalanuvchilari uchun” bosib chiqarmoq.

Masalan, saytdagi blogga ruxsatli kirish “Foydalanuvchilar faqat o’zining kursi qatnashchilarining blogini ko’rishi mumkin” qiymatiga ega, foydalanuvchi

esa “saytning barcha foydalanuvchilari uchun” variantini tanlaydi. Bu holda esa faqat kursning qatnashchilari blogning shu yozuvini ko’rishi mumkin.

Blogning kalit so’zlari

Blogning har bir yozuvida bu yozuvni xarakterlaydigan mos kalit so’zlarni qo’yish mumkin. Kalit so’zlar bo’yicha blog yozuvlarini izlash amalga oshiriladi. Qoidaga ko’ra, blogning har bir yozuvida u bilan bog’langan bitta yoki bir nechta so’zlar bo’lishi mumkin.

Kalit so’zlarning ikki tipi mavjud:

- Umumiy kalit so’zlar – administrator tomonidan qo’shiladi va saytning ixtiyoriy foydalanuvchisi uchun ruxsat berilgan.
- Foydalanuvchi tomonidan aniqlangan kalit so’zlar – ixtiyoriy foydalanuvchi qo’shishi mumkin bo’lgan shaxsiy kalit so’zlar.



Administratorlar butun sayt uchun kalit so’zlarni yaratishi mumkin.

O’qituvchilar o’zining kursi uchun kalit so’zlar yaratishi mumkin.

Talabalar o’zining shaxsiy kalit so’zlarini ishlatishi mumkin.

Siz blogning yangi kalit so’zlarini blog yozuvlarini qo’shish yoki tahrirlash orqali yoki **Blog menyusi** blokida **Kalit so’zlarni Qo’shish/o’chirish** havolasi bo’yicha qo’shishingiz mumkin.

Blogning kalit so’zlari **Blogning kalit so’zlari** blokida ko’rsatiladi.

Kursda bu blok tasvirini tahrirlash rejimida qurish mumkin.

Blok parametrlari:

- Blok sarlavhasi (nomi).
- Tasvirlanadigan kalit so’zlar soni.
- Faqat oxirgi kunlarda ishlatiladigan so’zlar ko’rsatilsin (10 dan 365 gacha).

Kalit so’zlarni alfavit bo’yicha yoki oxirgi yo’naltirilgan kunlar bo’yicha saralashni tanlash, ya’ni ommaviy havolalarni birinchilardan bo’lib ishlatish mumkin.

2 – BOB. FANNING O'QUV KURSINI TASHKIL ETUVCHI ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH

2.1. O'quv kursi resurslari va ularning tavsifi

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

O'quv-metodik majmua (O'MM) – davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv –uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi[10].

Fanning o'quv-metodik majmuasi tarkibining mazmuni Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq, ilm orqali bilim olish, to'liq o'zlashtirish hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta'lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqiladi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan va davlat ta'lim standartlariga to'g'ri keladigan o'quv uslubiy majmualar quyidagi tartibda joylashgan elementlarning ketma-ketligidan iborat shaklda tashkil qilinmoqda:

1. O'quv materiallar

Ma'ruza materillari

Amaliy mashg'ulotlar materillari

Laboratoriya mashg'ulotlar materillari

2. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlar materillari

3. Glossariy

4. Ilovalar

Fan dasturi;

Ishchi fan dasturi;

Tarqatma materiallar;

Testlar;

Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;

5. O'UM ning elektron varianti


Bu komponentalarning har biri majmuada keltirilgan tartibda joylashtiriladi va yaxlit bir tizim ko'rinishida taqdim etiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ro'yxatdagi komponentalardan barchasi ham doim majmuad bo'lishi shart emas, ya'ni ayrim fanlardan reja bo'yicha 5 ta komponentaning hammasi ham kiritilgan bo'lavermaydi. Kurs ishi, referat, mustaqil ish kabi komponentalar hamma fanda ham uchrayvermaydi.

FAN DASTURI – uslubiy me'yoriy hujjat bo'lib, davlat ta'lim standartining muayyan fan bo'yicha bakalavr (magistr) bilim, ko'nikma, va malakalariga hamda layoqiyotiga quyilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Fan dasturi (2-chizma) tarkibida fanning maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi, kompetensiyasi, nazariy, amaliy (laboratoriya, seminar) va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, taqvimiy mavzuiy rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxati hamda baholash mezonlari, shaxsning qaysi fazilatlarini shakllantirishga yo'nalganligi kiradi.

Dasturda fan, texnika, texnologiyaning so'nggi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasi hisobga olinishi, respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi shart.

Fan dasturini ishlab chiqishda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish va o'rganish, o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim talablari asosida tashkil etishga, e'tibor berilishi zarur.



Fanning ishchi dasturi metodik-me'yoriy hujjat bo'lib, davlat ta'lim standarti hamda fan dasturining muayyan fan bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi va mutaxassisligi bilim, ko'nikma va malakalariga quyilgan talablarga muvofiq ishlab chiqiladi.

Fanning ishchi dasturi tarkibida:

fanning asosiy maqsadi va vazifalari,

fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar,

fanining o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi,

fanni o'qitishdagi zamonaviy axbort va pedagogik texnologiyalar,

fanning hajmi,

ma'ruza va amaliy-seminar mashg'ulotlar mazmuni,

ma'ruza va amaliy-seminar mashg'ulotlari taqvim rejasi,

kurs ishlari mavzulari,

mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni,

dasturning informasion-uslubiy ta'minoti,

foydalaniladigan adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati,
baholash mezonlari kiradi.

Baholash mezonlari

Talaba bilimi, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi va butun o'quv yili davomida olib boriladi. Bunda asosiy e'tibor talabaning qanday bilim, malaka va ko'nikmaga, dunyoqarash va axloqiy-estetik qarashlarga egaligiga qaratiladi. Bularning barchasi bilimni tekshirish va baholashning turli usullarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning o'quv fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Nazorat tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganlik darajasini nazorat va tahlil qilib borish;
- b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;
- v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;
- g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni ta'minlash;
- d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;
- e) talabalarning o'quv fanlari bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;
- f) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari ta'lim muassasasining o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir o'quv fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi.

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

- joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi turli shakllarda o'tkazilishi mumkin;
- oraliq nazorat – o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasa tomonidan belgilanadi;
- yakuniy nazorat – o'qish yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi[10,11].

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha savollar

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga mo'ljallangan savol va topshiriqlar tizimi - EO'MMning yetakchi va jadal rivojlanayotgan ko'rsatkichidir. Test, savol va topshiriqlarning elektron shaklda berilishi talabaga o'z-o'zini baholashi asosida ularning faollashuvini va bilimlarni mustahkam egallashlarini ta'minlaydi, kasbiy qiziqishlarini rivojlantiradi, ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Talaba test

vazifalarini, savollar va topshiriqlarni kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib bajaradi.

Talabalar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida talabalar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. O'qituvchi tomonidan joriy va oraliq baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Joriy baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro teskari aloqani ta'minlash imkonini beradi. Oraliq baholashda fan asosiy bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi.

Yakuniy baholash talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash fanni o'qitish jarayoni yakunida o'tkaziladi.

Nazorat savollari va testlar talabalarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlari, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Yozma savollar va topshiriqlar o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchidan yozma tarzda javob olishga mo'ljallab ishlab chiqilgan baholash vositalari hisoblanadi.

Testlarning bir qator turlari mavjud bo'lib, ulardan ta'lim oluvchining nazariy bilimi va aqliy layoqatini baholashda foydalaniladi. Amaliy ko'nikmalarni baholashda esa asosan amaliy topshiriqlardan foydalaniladi. Amaliy topshiriqlarda ta'lim oluvchiga ma'lum bir ta'limiy mehnat faoliyatini bajarish yuzasidan vazifalar beriladi. O'qituvchi ta'lim oluvchining faoliyatini kuzatib oldindan ishlab chiqqan mezonlar asosida baholashi kerak.

Har bir mashg'ulot uchun **texnologik xaritalar** ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

Amaliy mashg'ulot texnologik xaritasi

№	Bosqichlar	Vaqt (daq)	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati	Ta'lim vositalari	Ta'lim metodlari
1	Motivasiya	10	Amaliy mashg'ulot maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi. Talabalarni faollashtiradi. Muammoni bayon etadi.	Tinglaydilar. Savollar bilan murojaat qilishadi	Tarqatma material	Aqliy hujum
2	Kichik guruhlariga ajratish	5	Kichik guruhlarini tashkil etadi va muammoli topshiriqlar beradi	Rangli kartochkalar orqali kichik guruhlar tashkil etishadi	Raqamli vositalar	Guruhiy ishlash
3	Kichik guruhlarda muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va oqibatlarini to'g'risida fikr yuritish	20	Ko'rsatmalar beradi va yo'naltiradi.	Har bir kichik guruh muammo-ning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladilar, oqibatlarini to'g'ri-sida fikr yuritadilar va kartochkalarga yozadilar.	Flipchart qog'ozi, markerlar, Rangli kartochkalar	Muammoni vaziyat, munozara
4	Kichik guruhlarda muammo yechimi bo'yicha ishl	20	Ko'rsatmalar beradi va yo'naltiradi, maslahatlar beradi.	Har bir kichik guruh muammoni yechimini ishlab chiqadilar.	Rangli kartochkalar, markerlar	Munozara
4	Kichik	15	Guruhni	Gurux ishini	Pinbord	Nam


	guruhlar taqdimoti		boshqaradi	taqdimot qiladilar. Muammo yechimi bo'yicha fikr yuritadila	va magnitli doska	oyish, muzo kara
5	Kichik guruhlar ishini baholash	5	Kichik guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi.	Kichik guruhlar bir birining ishini tahlil qiladi baholaydi, fikrlari ni bayon etadi.	Pinvand, doska, magnit	O'zar o baholash
6	Yakuniy qism	5	Natijalarni tahlil qiladi. Kamchiliklar bo'yicha tavsiyalar beradi. Mustaqil ish-lash uchun topshiriqlar beradi va amaliy mashg'ulotga yakun yasaydi	Savollar beradi. Mustaqil ish topshiriqlarini yozib oladilar		Muno zara

Fanni o'qitish texnologiyasi

O'qituvchi tomonidan fanning shaxsga yunaltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan o'qitish texnologiyasi bo'yicha metodik qo'llanma ishlab chiqiladi. Fanni o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o'tkazish, bilim va ko'nikmalarni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalari ishlab chiqiladi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi[10,21].

Ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, o'quv maqsadlari keltirilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha

o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr bo'lib, uning nomi tegishli fan nomi bilan ataladi[10,18].



Nazariy mashg'ulotlarni tashkil etishda matnli ma'ruza qismi eng salmoqli o'rinni egallaydi. Odatda, o'quv dasturiga kiruvchi barcha materiallar matn shaklida yaratilib, shundan so'ng ularga qo'shimcha ravishda audio hamda video materiallar ishlab chiqiladi. O'quv materialining bu taxlitda taqdim etilishi an'anaviy ma'ruzalarning bir qator kamchiliklar (zarur o'rinlarni ko'chirib olish, qayd qilish, ma'ruzachi tomonidan uni qayta-qayta takrorlashga ortiqcha vaqt sarflanishi)ni bartaraf etilishini ta'minlaydi. Ma'ruzalar matnida zarur ta'kidlashlarning rang, harflar shakli hamda illyustrasiyalar orqali berilishi esa u orqali hissiyotlarni uzatilishini ta'minlaydi.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar

Laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlari mazmuni bo'yicha o'quv qo'llanmasining kirish qismida fan bo'yicha talabalar tomonidan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarishning ahamiyati bayon qilinadi. Fanni o'rganish

natijasida laboratoriya ishlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda olingan bilimlardan amalda foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Har bir laboratoriya yoki amaliy mashg'ulot mavzusi, ushbu mashg'ulot davomida talaba egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar bo'yicha aniq o'quv maqsadlari belgilanadi.

Mashg'ulot shakli keltiriladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlar kichik guruxlarda ishlash yoki individual shakllarda o'tkaziladi.

Mashg'ulot qaysi ta'lim metodi asosida o'tkazilishi aniq ko'rsatiladi.

Laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlarida foydalaniladigan jihozlar, uskunalar va materiallar ruyxati beriladi.

Mashg'ulotning asosiy mazmuni va ishni bajarish bosqichlari bayon etiladi.

Ishning yakunida taqdimot shakli beriladi. Natijalarni baholash mezonlari keltiriladi. Har bir mashg'ulot yakunida qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltiriladi[10,11].

Ma'lumki, hozirgi davrda Maxus fanlarni o'qitish metodikasi ko'plab ilmiy va amaliy sohalarda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Jumladan, geografiya va biologiyada, texnika va tibbiy tashxisda, geologiya va gidrogeologiyada, arxeologiya va kriminalistikada, iqtisodiy va sotsial masalalarda keng qo'llanilmoqda.

Nazorat savollari va testlar.

Har bir bob bo'yicha tuzilgan nazorat savollariga va yozma topshiriqlarga talaba mustaqil ravishda javob yozib uni kompyuterlarda yoki qog'ozga chiqarilgan ko'rinishda o'qituvchiga taqdim qilishi mumkin. Test savollariga javob berib talaba har bir bo'lim bo'yicha o'zining bilimini tekshirib ko'rishi mumkin.

Didaktik materiallar

Didaktik materiallarga talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o'yinlar, krassovordlar kabi materiallar kiradi. Shuningdek o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan tarkatma materiallar, kartochkalar, savolnomalar, yuriknomalar, amaliy ishni tashkil etish buyicha texnologik xaritalar va h.k. kiradi.

Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berishlari kerak:

- Muammolarni hal qilishga yunaltirish;
- Tadqiqotlar olib borishga yunaltirish;
- Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish;
- Tajribalar va mashqlar o'tkazishga muljallash;
- Yangiliklarni izlash va topishga yo'naltirish.

Mustaqil ishlar mazmuni

Ta'lim dasturida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi ko'zda tutilgan. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismini mustaqil o'zlashtirilishidir.

Mustaqil ta'lim talabaning auditoriyada va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma'ruza amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida;

2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, yakka topshiriq bajarish va boshqa o'rinlarda.

3. Axborot resurs markazida, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Talabalar mustaqil ta'limini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi. Ma'lumki, o'quv materiallarining turli shakllari, jumladan o'rganiladigan jarayon va hodisalarni virtual shaklda aks ettiradigan elektron o'quv-metodik resurslar, yangi mavzularni o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda to'la javob olish imkoniyatini beradigan integrallashgan elektron lug'at-ma'lumotnoma, tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha virtual laboratoriya va namoyish-tajriba mashg'ulotlari talabalar tomonidan o'quv fanlarini mustaqil o'rganishda zarur bo'ladigan resurslardan sanaladi. Mustaqil ishni tashkil etishda yuqorida eslatilgan resurslardan foydalanish tartibi har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi.

Mustaqil ish muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Ushbu bo'limda talabalar mustaqil ishini bajarish yuzasidan tegishli kafedralar tomonidan savol va topshiriqlar hamda ularni bajarish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi sxemada keltirilgan mustaqil ish turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Talaba tomonidan mustaqil ravishda javob yozishni (referat yoki hisobot shaklida) talab etuvchi savollar ishlab chiqiladi. Talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Yozma mustaqil topshiriqlar:

-hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish,

laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriqlar:

- ularga turli loyihalarni tayyorlash chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, (ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va x.z), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shu kabi vazifalar qamrab olinadi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

- talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida buyum va maxsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarni ta'mirlash, maxsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar[11,15].

Metodik tavsiyalarning asosiy bo'limlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlari bayoni yoki xarakteristikasi;
- har bir auditoriyadan tashqari mustaqil topshiriqni bajarish yuzasidan sarflanadigan namunaviy vaqt me'yori;
- tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati (asosiy va qo'shimcha);
- talabalar mustaqil ishlarini jihozlash va taqdim etishga qo'yiladigan talablar;
- talabalar mustaqil ishlarining bajarilish sifatini baholash.

Izohli lo'g'at

Izohli lo'g'at – fan bo'yicha barcha atamalarning qisqacha va to'liq ma'nolari keltirilgan, asosan elektron ko'rinishda jamlangan lo'g'at bo'lib, uning vazifasi foydalanuvchi o'quvchiga o'rganilayotgan fan bo'yicha uchragan notanish so'zlarga izoh berish yoki yoda qolishi qiyin bo'lgan tushunchalar mazmunini tez topish uchun qo'llaniladi. [10,11,16].

2.2. Elementlarni platformaga joylashtiradigan holda shakllantirish usullari

Endi o'quv materiallarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaylik. To'laqonli onlayn o'qitish loyihasi ko'rsatma, axborot, nazorat, kommunikativ va boshqarish bloklaridan iborat bo'ladi. Masofaviy o'qitish kursi faqatgina mashg'ulotlar matnigina emas, balki, tarmoqda zarur axborotlarni qidirish, ma'lumotlar almashish, ma'lumotlar bazasiga murojaat etish, INTERNET tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanishdir. Masofaviy o'qitish o'zining xususiyatiga ko'ra individual o'qish bo'libgina qolmay, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham rivojlantirishi zarur.

Masofaviy o'qitishning sifati o'quv kurslarini tashkil etilishiga bog'liq. Ta'lim tizimining masofaviy o'qitishda o'qitish samaradorligi quyidagi 4 ta tashkil etuvchiga bog'liq bo'ladi:

- a) tinglovchi va o'qituvchining samarali muloqoti;
- b) qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar;
- v) yaratilgan o'quv-metodik materiallarning sifati va ularni tinglovchiga etkazish;
- g) teskari aloqaning mavjudligi hamda samarasi. Boshqacha qilib aytganda, masofaviy o'qitishning samarasi o'quv materiallarining sifatiga va pedagoglarning mahoratiga bog'liq.

O'quv kursini yaratish bosqichlari

1-bosqich. EO'K yaratish rejasi va uning ijrochilari kafedra majlisida tasdiqlanadi.

Fan bo'yicha EO'Kni yaratishda mualliflar jamoasi tuziladi. Mualliflar jamoasiga fan o'qituvchisi, soha mutaxassislari, Davlat ta'lim standarti va fan dasturlarini ishlab chiquvchilar, elektron ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha muhandis, dasturchilar va dizaynerlar, metodistlar, psixologlar kiritiladi.

Yaratiladigan elektron o'quv kursning sifati mualliflarning pedagogik va kasbiy mahoratiga, ularning bilim darajasiga bog'liq bo'ladi.

2-bosqich. EO'UM tuzilmasini ishlab chiqish.

EO'UMni tarkibiy tuzilishini modulli tizim asosida qurish maqsadga erishishni osonlashtiradi. O'quv materiallari alohida ajratilgan modullarda beriladi. Modullar avtonom ko'rinishdagi o'quv materiali bo'lib, u mazmuniy va metama'lumotlar qismlaridan tuzilgan bo'ladi. Modulli o'quv materiallarning boshqaruv tizimini hosil qilish uchun modullar orasida o'zaro bog'lanishlar ta'minlanishi lozim. Har bir komponentning mazmuni fan bo'yicha qo'yilgan maxsus talablardan kelib chiqqan holda, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta'lim talablari va tamoyillari asosida ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

EO'Kni yaratishda o'quv materialining o'quv elementlariga bo'linishi va uning tuzilmasini iyerarxiya ko'rinishida ko'rgazmali tasvirlashga yo'naltirilgan o'quv materiali mazmunining modelini ishlab chiqiladi.

Fanning modullar asosida tuzilgan mavzu rejası

Modullar	Xaftalar	Mavzular raqami	Mavzularning nomi	Soatlar				
				Jami	Ma'ruzalar	Laboratoriya mashg'ulotlari	Amaliy mashg'ulotlar	Talabalarning mustaqil ishlari
1	1-4	1	A	24	---	---	12	12
	5-8	2	B	24	---	---	12	12
2	9-12	3	V	24	---	---	12	12
	13-17	4	G	30	---	---	15	15
3	1-4	5	D	24	---	---	12	12
	5-8	6	E	24	---	---	12	12
4	9-12	7	J	24	---	---	12	12
	13-17	8	Z	30	5	---	10	15
5	1-4	9	I	16	---	---	8	8
	5-8	10	K	16	---	---	8	8
6	9-12	11	L	16	---	---	8	8
	13-17	12	M	20	---	---	10	10
7	1-4	13	N	16	---	---	8	8
	5-8	14	O	16	---	---	8	8
8	9-12	15	P	16	---	4	4	8
	13-17	16	R	20	---	---	10	10
Jami:				340	5	4	161	170

3-bosqich. EO'Kning barcha komponentlaridan ssenariy va elektron versiyalarini yaratish.

EO'K komponentining senariysi bu – ta'lim bosqichining mazmuni va jarayonining turli daraja va vazifadagi dasturli tuzilmalar doirasida kadrlar bo'yicha taqsimlanishidir. Jarayon qismi mazmuniy qismni ochib berish va namoyish qilish uchun monitor ekranida tasvirlanishi zarur bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Har bir mavzu bo'yicha ssenariylar yaratiladi hamda alohida nazariy ma'lumotlarga, laboratoriya va amaliy ishlariga, seminar mashg'ulotlariga fayl (1-mavzu-ma'ruza.doc, 1-mavzu-laboratoriya.doc, 1-mavzu-seminar.doc, 1-mavzu-test.doc)lar yaratiladi[10].

4-bosqich. EO'K barcha komponentlari bo'yicha yaratilgan ssenariy va fayllarni gipermatn va giperssilka texnologiyalari orqali dastur tuziladi.

O'quv kursi resurslari – bu uning tarkibi (kontenti), ya'ni o'qituvchi kurs bo'limlariga o'rganish uchun joylashtiradigan nazariy materiallar. Ular Moodle ma'lumotlar bazasiga yuklanadigan fayllar ko'rinishida yoki tashqi saytlarga havola ko'rinishida tasvirlanishi mumkin. Moodle tizimi kurs resurslari sifatida elektron hujjatlarning turli xil ko'rinishlarini ishlatishga ruxsat beradi.

Nazariy materiallarni tasvirlash usullari

O'rgatuvchi material	Moodle resursi
Matnli fayl ko'rinishidagi ma'ruza	 Matnli sahifa    Faylga (.doc, .odt, .pdf va boshqa formatlar) yoki veb-sahifaga havola
html-sahifa ko'rinishidagi ma'ruza	 Veb-sahifa  Faylga yoki veb-sahifaga havola

Prezentasiya ko'rinishidagi ma'ruza: audio-, video-ma'ruza	  Faylga (.ppt, .wav, .mp3, .avi va boshqa formatlar) yoki veb-sahifaga havola
Tasvirlar, audio- va video-materiallar katalogi	 Katalogga havola

Resurslarning ahamiyati

Moodle resursi	Resursning ahamiyati
 Matnli sahifa	Richtext HTML-muharrir qatnashmaydi. Matnning minimal formatlanishi: web-manzillarni havolalarga, smayliklarni esa mos grafiklarga o'zgartirish.
 Veb-sahifa	Matnni Richtext HTML-muharrirda formatlashtirish: tasvirlarni, giperhavolalarni qo'yish, html-kodni tahrirlash.
   Faylga yoki veb-sahifaga havola	Havolani tashqi resursga kabi, kursda joylashgan fayllarga (matnli hujjatlar, html-sahifalarga) ham ko'rsatish mumkin.
 Katalogga havola	Kursning faylli sohasidagi katalog tarkibini ko'rsatadi.
Sharh	O'quv kursi bo'limida chiqariladigan matn. Richtext HTML-muharrir ishtirok etadi.

HTML-format

Bu format matn HTML kengaytmalar tilini qo'llash orqali yozilganini bildiradi. Agar siz HTML-muharrirni matnni tahrirlash uchun ishlatasangiz, u holda bu format jimlik qoidasiga ko'ra o'rnatilgan bo'ladi.

Agar siz Richtext HTML-muharrirni ishlatmasangiz ham, matnda HTML-kodni qo'llab, o'zingiz istagan narsangizni olasiz.

Avto-formatdan farqli ravishda, hech qanday avtomatik o'zgartirish sodir bo'lmaydi.

Saytda HTML ni yozsangiz, zarur effektlarni yaratish uchun ixtiyoriy HTML-teglarni ishlatishingiz mumkin.



HTML-teglarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- <HEAD> va <BODY> teglarini ishlatmaslik kerak;

PDF formatida hujjatni saqlash

PDF formati boshqa formatlardan, har doim hujjatni suratli tasvirlashi bilan ajralib turadi. Shuning uchun formatlash uchun murakkab bo'lgan elementlarni HTML formatida aniq tasvirlash mumkin bo'lmagan hollarda uni ishlatish tavsiya etiladi. Bunday elementlarni o'z ichiga oluvchi misol sifatida fanning ishchi dasturini olish mumkin. Unda vertikal joylashgan matnli jadvallar bo'lib, jadvalning turli ustunlaridagi matnlar balandlik bo'yicha mos tushishi kerak

Agar hujjat OpenOffice Writer (MS Word ning bepul analogi)da yaratilgan bo'lsa, uni PDF formatida saqlash uchun uskunalar panelidagi  "PDF ga eksport" tugmasini bosish yetarli. Shu bilan bo'ldi!

MS Word 2007 ni ishlatishda ham siz faylni PDF formatida saqlashingiz mumkin. Buning uchun **"Office"** tugmasini bosing, **"Qanday saqlash kerak"**ni tanlab, **"PDF yoki XPS"**ni bosing. Faylni saqlashda PDF formatini tanlang.


PDF-faylni yaratishning keng tarqalgan usuli printerning maxsus drayverini ishlatish orqali faylni bosmadan chiqarish hisoblanadi. Siz kompyuteringizda **PDFCreator** bepul drayverini o'rnatishingiz mumkin. Uni ishlab chiqaruvchining saytidan yuklab olishingiz mumkin:

<http://www.pdfforge.org/products/pdfcreator>.

PDF-faylni yaratish uchun:

1. Hujjatingizni bosmaga chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan Word, Excel va boshqa dasturda oching.

Fayl - Bosmadan chiqarish... menyusini tanlang va printerlar ro'yxatidan **PDFCreator** ni tanlang.



2. Faylni bosmadan chiqarish uchun **OK** tugmasini bosning.
3. PDFCreator dasturida fayl parametrlarining ichki oynasi ochiladi (Avtor, Mavzu va sh.o'. maydonlardan iborat), siz hoxishingizga ko'ra uni ishlatishingiz mumkin. So'ngra **Saqlash** tugmasini bosning.

Kurs resurslarida formulalarni ishlatish

Formular bilan ishlash, shu jumladan ularni veb-sahifalarga qo'yish, o'qituvchi auditoriyasi turli xil kompyuter dasturiy ta'minoti va resurslari o'rnatilgan operasion tizimli eshituvchilardan tarkib topganligi uchun masofaviy ta'limda bir muncha qiyinchiliklarni chaqiradi[8].

- I.  **Eng ishonchli usul** formulalarni rasm ko'rinishida tasvirlash hisoblanadi. Bu usul formulani talaba kabi o'qituvchi ham ko'rganligi uchun 100% ishonchli bo'ladi.

Rasm ko'rinishidagi formulalardan iborat veb-sahifalarni yaratishda o'qituvchiga bir muncha qiyin bo'ladi, chunki formulani matnga faylga havola ko'rinishida yuklashi kerak.

1. MS Word da Microsoft Equation formulalar muharriri yordamida formula kiritamiz (jimlik qoidasiga ko'ra yuklanmaydi, uni tanlab yuklash kerak).
2. Hujjatni veb-sahifa kabi saqlaymiz (*.html). bundan *.html fayli va rasmlar fayli joylashgan *.files nomli qo'shimcha papka yaratiladi.
3. *.files papkasini ochamiz va formuladan iborat rasmlari fayllarni GIF formatida saqlaymiz (jimlik qoidasiga ko'ra ular image001.gif, image002.gif va b. kabi nomlanadi).

Kurs elementlari

Moodle da talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirish uchun kursga alohida aktiv elementlarni qo'shish ko'rib chiqilgan.

Aktiv elementlar – bu kunduzgi ta'limda talabalarni ma'ruzadan tashqarida talabalar aktivligi deb atash mumkin. Masofaviy ta'limda u tarmoqli kommunikativlikni ta'minlaydi: avvalom bor, bu muloqot shakllaridir – forumlar, chatlar, xabarlarini almashish; elektron darslar, seminarlar; hamkorlikdagi loyiha ishlari, masalan, glossariy yaratish. Va nihoyat, bu bilimlarni tekshirish formasi: testlar, topshiriqlar, so'rovlar.

Kursning elementlari bilan ishlash talabaning **aktiv faoliyatini** talab etadi.



Aynan kurs elementlari bilan ishlash tizim va o'qituvchi tomonidan baholanadi va oxirida o'quv kursini o'zlashtirishda yakuniy baholashga imkon beradi.

Har bir elementda kurs elementlariga oson yo'naltiriladigan, unga mos tasvir mavjud.

Keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

Moodle elementlari	Elementlarning xususiyatlari
Topshiriq	Topshiriq o'qituvchiga masalalar qo'yishga ruxsat beradi, bundan esa talabadan javoblarni elektron ko'rinishda tayyorlash (ixtiyoriy formatda) va serverga yuklash talab etiladi. Topshiriq tekshirilgandan keyin o'qituvchi baho

	qo'yishi va ishga taqriz yozishi mumkin.
 Forum	Forum – bu kurs qatnashchilarining (o'qituvchi va talaba) o'qish davomidagi muloqot vositasi. Bir necha tipli forumlarni ishlatish mumkin.
 Seminar	Seminar – bu shunday dars ko'rinishi-ki, unda talaba nafaqat o'zining ishini bajaradi, balki boshqa talabalar ishining natijasini baholaydi. Yakuniy bahoda talabalar ishining nafaqat sifati, balki taqrizchi sifatidagi ishi ham hisobga olinadi.
 Test	Topshiriqlarning turli ko'rinishdagi tiplarini o'z ichiga oladi (berilgan javoblardan birini tanlash / o'zinikini yozish / kengaytirilgan javobni berish). Javoblarni tekshirish avtomatik amalga oshiriladi.
 Dars	Nazariy material bir necha qismlarga bo'lingan: keyingi bo'limni o'rganish uchun savollarga to'g'ri javob berish kerak. O'quv materialini qismlarga bo'lib berish mumkin, har bir qism oxirida savollar berish va javoblarga bog'liq holda o'qitish jarayonini materialni o'qitishning u yoki bu bo'lagiga yuborish.
 Chat	Chat moduli kurs qatnashchilariga Internet orqali real vaqtda muloqotni amalga oshirishga ruxsat beradi. Chatda muloqot bir vaqtning o'zida kurs qatnashchilari va o'qituvchilarini ishlashiga olib keladi.
 So'rov	So'rov – bu juda oddiy instrument. U talabalarga berilgan qandaydir savol javoblarining bir nechta variantlarini tanlash imkonini beradi.
 Glossariy	Glossariy – bu kursda ishlatiladigan terminlar va tushunchalar lug'ati.

Keyin ishlatiladiganlari:

Moodle elementlari	Elementlarning xususiyatlari
 Anketa	Moodle jamoadagi psixologik klimatni o'rganish uchun kurslar bo'yicha axborotlarni yig'ish uchun oldindan ishlab chiqilgan anketalarni o'z ichiga oladi.
  Anketali so'rov	Anketali so'rov moduli foydalanuvchidan ma'lumotlarni yig'ish uchun savollar tiplarining to'plamini ishlatgan holda anketa (so'rov)lar yaratishga ruxsat beradi. Statik hisoblanadigan Anketalar standart elementlaridan farqli ravishda (tahrirlanmaydigan va berilgan oldindan aniqlangan savollardan tashkil


	topgan) Anketali so'rov elementi o'qituvchiga turli tipli savollarni anketaga kiritishga ruxsat beradi.
 Ish daftari	Ish daftari talabani konspekti, yozma nazorat ishi yoki referatning masofaviy analogi sifatida ko'rilishi mumkin. O'qituvchi talabalardan aniq mavzu haqida fikrini bildirishni yoki aniq savollarga javob berishni so'raydi. Talaba javob beradi va shu vaqtning o'zida javobini tahrirlashi mumkin.
 Kitob	Kitob – bu ko'p betli o'quv material. Kursning bunday elementi bir nechta hujjatlarni birlashtirish uchun foydali bo'lishi mumkin, masalan, bitta mavzuli maqola.
 Ma'lumotlar bazasi	Ma'lumotlar bazasi moduli o'qituvchi va talabalarga ma'lumotlar bazasidan yozuvlarni olishga, ko'rib chiqishga va izlashga ruxsat beradi. Bu yozuvlarning formati va strukturasi chegaralanmagan, ular o'z ichiga rasmlarni, havolalarni, matn va boshqa formatlarni olishi mumkin.
 Muloqot	Muloqot moduli foydalanuvchilar juftligi orasida muloqotning oddiy usulini ta'minlaydi.
 SCORM	SCORM moduli ixtiyoriy SCORM yoki AICC standart paketlarini yuklashga ruxsat beradi va ularni kursning bir qismi deb hisoblaydi.
 Wiki	Wiki moduli talabalarga hujjat ustida uning tarkibini qo'shib, kengaytirib va o'zgartirgan holda hamkorlikda ishlashga ruxsat beradi.
 Mashq	Mashqda o'qituvchi talabalardan qandaydir amaliy ishni bajarishni so'raydi. Bu ocherk yoki hisobotning yozilishi, taqdimot yaratish va sh.o'. bo'lishi mumkin. Talaba topshiriqni bajarib bo'lgandan so'ng, u ishini o'qituvchiga yuborishdan oldin tekshirishi kerak. Talaba ishini yuborgandan keyin uni o'qituvchi tekshiradi. Yakuniy baho ishning sifatiga va uni talaba qanday baholaganiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda ko'pincha Seminarga almashtiriladi.
 Hotpot testi	Testlar o'qituvchi kompyuterida yaratiladi va keyin Moodle kursiga yuklanadi.

 Kursning boshqa elementlari ham bo'lishi mumkin, agarda ularga mos qo'shimcha modullar administrator tizimiga qo'shilgan bo'lsa[8].


3-BOB. “MAXUS FANLARNI O’QITISH METODIKASI” FANINING ELEMENTLARINI MOODLE PLATFORMASIGA JOYLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH TASNIFI


3.1. MOODLE platformasiga fan elementlarini joylashtirish yo’riqnomasi

Moodle platformasiga “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan o’quv kursini joylashtirish uchun kursning barcha joylashtiriladigan elementlari platforma qabul qiladigan elektron shaklga keltiriladi. Biz bu elektron shakllarni turlari bilan 2-bobning 2-bo’limida tanishdik. Kursning barcha elementlari tayyor bo’lgandan so’ng, kurs bo’yicha javobgar o’qituvchi yoki administrator ruxsati va login, parolini ishlatib Moodle platformasiga kiramiz. Buning uchun kompyuterdagi ixtiyoriy browserning manzillar qatoriga moodle.samtuit.uz manzilini teramiz. Natijada quyidagi oyna hosil bo’ladi.




Hosil bo’lgan oynaning yuqori chap burchagidagi **ВХОД** bo’limidan platformaga kirish oynasiga o’tamiz.






Bu oynadagi tegishli bandlarga o'qituvchi yoki admistrorga tegishli login hamda parolni terib autintifikatsiya jarayonidan o'tamiz. Natijada kurs yaratuvchisiga tegish quyidagi oyna ochiladi:



Oynaning pastroq qismida TATU Samarqand filialida mavjud kafedralar ro'yxati keltirilgan bo'lib, biz kiritmoqchi bo'lgan fan qaysi kafedraga tegishli bo'lsa shu kafedrani ro'yxatdan tanlaymiz. Biz kursni yaratmoqchi bo'lgan "Maxus fanlarni o'qitish metodikasi" fani Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrasiga tegishlidir. Shu sababli ro'yxatdan ushbu kafedrani tanlaymiz[21,25].

Natijada kafedraning sahifasi hosil bo'ladi. Bu sahifada kafedradagi mavjud fanlardan yaratilgan kurslarning ro'yxati joylashgan.



Bu oynadagi *Добавить курс* tugmasini bosish orqali yangi kurs tashkil qilinadigan sahifaga o'tiladi.

Редактировать настройки курса

Общее

Полное название курса: Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi

Краткое название курса: MFO'M

Категория курса: 2-semestr


Видимость курса: Показать

Дата начала курса: 2 Января 2019

Дата окончания курса: 26 Июня 2019 ☒ Включить

Идентификационный номер

Bu oynadagi barcha maydonlarga kursga tegishli parametrlar kiritiladi va bu parametrlar kursga kirgan har bir foydalanuvchiga kurs haqida dastlabki ma'lumotlarni beradi. Bu oynadagi barcha bo'limlarni to'ldirish shart emas, to'ldirish zarurlari qizil rang bilan ko'rsatib o'tilgan. Barcha parametrlarni kiritib bo'lgandan so'ng **Сохранить** **Отмена** tugmasini bosish orqali kafedraning sahifasiga qaytamiz. Ko'rib turganingizdek sahifada yangi “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” degan kurs paydo bo'ldi.




Kurs ichiga kirib ma'lumotlarni ko'rish uchun kursning nomi ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosamiz. Natijada kurs sahifasi ochiladi.


Ko'rib turganingizdek kurs sahifasida hali hech qanday ma'lumot yo'q.



Kursga ma'lumotlar joylashtirish uchun quyidagi oynaning belgilangan bo'limidan foydalanamiz.




Natijada sahifani tahrir qilish oynasi quyidagi ko'rinishda ochiladi.




+ Добавить элемент или ресурс

Tugmani bosish orqali kursga resurs qo'shish oynasini ochamiz.




Bu oyna orqali kursga Moodle platformasi qo'llab, quvvatlaydigan 20 dan ortiq elementlarni qo'shish mumkin. Biz bu kursga ixtiyoriy faylni qo'shishni misol sifatida ko'ramiz. Buning uchun oynadagi ro'yxatdan fayl bo'limini tanlaymiz hamda *Добавить* tugmasini bosamiz[8,10].




Natijada fayl qo'shish uchun oyna hosil bo'ladi.




Bu oynadan faylga qo'shimcha izoh hamda kursda faylga beriladigan nomni kiritamiz. Keyingi oynadan esa joylashadigan faylni turgan joyini tanlaymiz va platforma serveriga yuklaymiz.



Faylni yuklaganimizdan so'ng, **Сохранить и вернуться к KVDSCV** tugmasini tanlab kurs sahifasiga qaytamiz, natijada quyidagi ko'rinishda yuklagan fayllarimiz joylashgan oyna hosil bo'ladi.




Bu oynadan **Завершить редактирование** tugmasini bosib kursni tahrir qilishni yakunlaymiz, shuni yodda tutingki tahrir qilish rejimi bilangina kursga qo'shimcha o'zgartirish va elementlar kiritish mumkin. Endi bizga oldingidan farqli ravishda elementlar mavjud bo'lgan kurs sahifasi namoyon bo'lmoqda.




Ko'rib turgan oynangizda faqatgina kursga tegishli ayrim me'yoriy hujjatlar joylashgan, mavzu bo'limi esa hozircha bo'sh. Bu fandan 18 ta ma'ruza ko'zda tutilgan bo'lib, kursni yaratishda barcha ma'ruzalarni joylashtirish uchun 18 ta mavzuga joy ajratdik. Endi qiladigan ishimiz bitta mavzu bo'yicha kerakli resurslarni joylashtirib ko'rsatishdan iborat.


Kursga resurslarni joylashtirish uchun **Тема1** bo'limidan **Добавить элемент или ресурс** silkasiga kirib kerakli elementni tanlaymiz. Elementni tanlash oynasi quyidagicha:



Bu oynadan **Лекция** bo'limi orqali ma'ruza faylini yuklash mumkin bo'ladi.




Oynanaing tegishli bo'limidan ma'ruza faylini yuklab olamiz. Shu usul orqali fanga tegishli barcha ma'lumotlarni yuklab olamiz va sahifaning tegishli bo'limlariga joylashtiramiz. Natijada oyna quyidagicha ko'rinish oladi.




Ko'rib turgan ma'lumotlaringiz fanning 1- mavzusiga tegishli ma'lumotlar hisoblanadi.

Oynadagi *Test* bo'limiga test savollarini joylashtirish uchun bu bo'limga kirib quyidagi tartibda savollarni joylashtirish mumkin.




Belgilangan bo'limga kirib,


Keyingi oynadan savollarni taqdim etilish shakli tanlanadi. Biz ko'p variantlilik shaklini tanladik.




Далее tugmasini bosib, hosil bo'lgan oynadan savolni va muqobil javoblarni kiritib o'tamiz.



Bu oynadan savol va javobga qo'yiladigan ball kiritiladi.




Bu oynadan savolga beriladigan to'g'ri javob va boshqa javoblar kiritiladi. Savollarni kiritib bo'lgandan so'ng test bo'limiga kiritilgan barcha savollar quyidagi tartubda joylashadi[16,20].




Bu oynada 4 ta savol kiritilgan bo'lib, agar kiritish jarayonida ayrim xatolar kuzatilsa, shu oynadan chiqmasdan turib ham tuzatish mumkin. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, kurs sahifasiga kiritiladigan elementlarning eng murakkabi test savollarini kiritish jarayoni hisoblanadi. Sizlarga kursni yaratish va elementlarini joylashtirish jarayonini etarlicha etkazishga harakat qildim. Keyingi bo'limda kursdan foydalanish tasnifini keltiramiz.

3.2. MOODLE-ochiq kodli masofaviy ta'lim tizimida “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanining sahifasidan foydalanish tasnifi


TATU Samarqand filialining virtual ta'lim tizimiga kirish uchun kompyuteringizdagi brouzeringiz manzillar qatoriga moodle.samtuit.uz manzilini kiritib quyidagi sahifaga ega bo'lamiz.




Bu oynadan talaba yoki o’qituvchi o’zining login va parolidan foydalanib, kafedrlar joylashgan sahifaga kiradi va “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fani o’qitiladigan kafedrani sahifasini ishga tushiradi. Bizda bu kafedraning nomi *Axborot ta’lim texnologiyalari* kafedrasidir.



Kompyuter tizimlari kafedrası sahıfasıga kırıgandan so'ng, Maxus fanlarnı o'qıtısh metodıkası fannı sahıfasını tanıaymız.



Natıjada kurs sahıfasıga kırıamız. Uning umumıy ko'rınıshı quyıdagıcha:



Oynada ko'rib turganıngızdek fan hujjatlarnı ro'yxatıdan boshlangan, keltırılган ro'yxatda doc, pdf shaklıdagı formatda kursning me'yoriy huquqiy

hujjatlari joylashtirilgan. Ulardan foydalanish uchun hujjat nomi ustida sichqoncha tugmasini bosamiz va faylni ochib yoki to'liq ko'chirib olamiz.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI AХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА
КОММУНИКАЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАСТИРИШ ВАЗИРЛИГИ

МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ АХБОРОТ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ
САМАРҚАНД ФИЛИАЛИ

Рўйхатга олинди
№ 08-08
« 30 » _____ 2018 й.

Гасликлайман
Ўқув ва илмий ишлари бўйича
директор ўринбосари
доц. К. Бекмуродов
« 30 » _____ 2018 й.

“МАХСУС ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ УСЛУБИЎТИ”


Фаннинг
ишчи ўқув дастури

Билим соҳаси:	300000 – Ишлаб чиқариш техник соҳа
Таълим соҳаси:	330000 – Компьютер технологиялари ва информатика
Таълим йўналиши (мутахассислик):	5A330501 – Компьютер инжиниринги (Компьютер тизимларини лойиҳалаш) 5A350101 – Телекоммуникация инжиниринги (Телекоммуникация тармоқлари)

Самарқанд – 2018

IMG_20190819_123359.jpg (2000 x 4000)

Kursning hujjatlar bo'limidan, fanning ishchi o'quv dasturini ishga tuhsirib ko'rganimizda yuqoridagi ko'rinishda fayl paydo bo'ladi. Kursning me'yoriy hujjatlari bo'limidan pastroqda kursga kursning mavzulari va darsda foydalaniladigan qo'shimcha elementlari joylashgan[16,26].



Har bir mavzuga tegishli 8 tadan hujjat joylashtirilgan bo'lib, ularning dastlabki to'rttasidan faylni bevosita ko'chirib olish yoki faylni ochib ko'rish orqali foydalanish mumkin. Lekin test savolari bo'limidan foydalanishda talaba mavzuga doir testlarga javob beradi. Buning uchun **Test** bo'limiga kirib quyidagi ishlarni bajaramiz:

Метод оценивания: Высшая оценка

[Начать просмотр теста](#)

Вопрос 1

Пока нет ответа


Балл: 1,00

Tadqiqiy – ijodiy yondashuv ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega?


Выберите один ответ:

- ☐ a. Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni echish qobiliyatini o'stirish yangi bilimni mustaqil o'zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish shaxsan tashabbus ko'rsatishini ko'zda tutadi;
- ☐ b. Ko'zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir
- ☐ c. Pedagogik texnologiya usulida ta'lim takror ishlab chiqiladigan konverli jarayon sifatida tashkil etiladi
- ☐ d. Talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishini orttiradi

Savollar har bir sahifada alohida berilgan bo'lib, bitta savolga o'zingiz to'g'ri deb bilgan javobni tanlab, pastroq qismidagi **Далее** tugmasini bosish orqali keyingi savolga o'tamiz. Kurs tashkil qiluvchisi nechta savol kiritgan bo'lsa barchasiga javob bergandan so'ng, testni tugatib, natijani aniqlaysiz.

Bu oynadan  tugmasini tanlab, quyidagi natijaga ega bo'lamiz, ya'ni har bir savolni platformaning o'zi tog'riligini tahlil qilib chiqadi.

Ko'rib turganingizdek birinchi savolga tog'ri javob bergan ekanmiz.



Agar natijadan qoniqmasak **Начать тест** tugmasi orqali testni qayta topshirish mumkin.

Shunday qilib kursdagi ayrim elementlardan foydalanish o'rgandik. Kursdagi qolgan elementlardan foydalanish va nazoratlarni topshirish ham ko'rsatilgan elementlaridagidek ketme-ketlikda bajariladi. Shuni aytib o'tish kerakki kursdan foydalanish uchun talaba va o'qituvchilar albatta kurs administratori yoki o'qituvchisidan login va parolni olishi shart.

3.3. Komp'yuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalari

Ma'lumki, turli darajadagi va kattalikdagi shovqinlar organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni qobiliyatini pasayishiga sabab bo'ladi. Shovqin sharoitida ishlashda insonlarda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, xotira susayishi, ishtaha bug'ilishi, quloqda og'riq va boshqalar kuzatiladi. Shovqinning og'irlik darajasi ko'p jihatdan ishning kuchlanganlik darajasiga bog'liq. Demak, kuchlanish katta bo'lsa, xavf darajasi katta bo'lishi kuzatiladi.

Muxandis dasturlarni ish o'rnida shovqinning maksimal qiymati, 50 dba dan katta, informatika va hisoblash zallarida esa 65 dba bo'lishi lozim. Bu kabi javobgarlik talab qiladigan xonalarda va komp'yuter zallarida tegishli himoya vositalarini ko'rish va amalga oshirish juda muximdir. Buning uchun shovqinni kamaytirish maqsadida maxsus shovqin yutuvchi va kamaytiruvchi moslamalar o'rnatiladi.

Komp'yuter bilan ishlash davomida insonlarning ko'rish organlarida yuqori darajada kuchlanish holati sodir bo'ladi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga binoan EHM joylashtirilgan xonalarda maxsus uskunalar o'rnatiladi. Yonqin boshlangan holatda plastmassalarni tutashi natijasida zaharli is gazi ajralib chiqadi va ishchilarni bug'ishi mumkin. Shu sababli, belgilangan talablarga mos keladigan o'chirish uskunalaridan foydalanish maqsadidga muvofiqdir. Ish o'rnini samarali tashkil etishda asosiy e'tibor elektromagnit va elektrostatik maydonlar ta'sirini kamaytirishga qaratilishi darkor. Bugungi kunda ish o'rnini ergonomik talablar asosida tashkil etish, komfort ish sharoitini tashkil etish dolzarb masaladir. Olingan tadqiqotlar asosida ish stolining optimal o'lchamlari, qo'lay konfiguratsiyasi, ish o'rnini to'g'ri tashkil etishda asosiy manbadir.

Komp'yuter bilan ishlash davomida bir qator faoliyat bilan bog'liq fiziologik jarayonlar sodir bo'ladi va inson organizmiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi ta'sirlar va xavfli holatlar muxandis-dasturchilarning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, kasb kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Komp'yuterlar joylashtirilgan xonalar va dasturlovchi o'rni yong'in xavfsizligi talablari bo'yicha tez yonuvchi materiallar hisoblanadi.

Elektr hisoblash mashinalari va aloqa vositalari joylashtirilgan xonalarda yong'in xavfi mavjud bo'lib, bu holat katta miqdorda tez eriydigan yengil materiallar. Bu xonalarda yong'in asosan yonuvchan moddalarning oksidlanishi, issiqlik ta'sirida erishi natijasida sodir bo'ladi. Mavjud xonalarda o'rnatilgan akustik va estetik talablarga mos keluvchi eshik, pol, kabellar izolyasiyasi va boshqalar yonuvchi komponentlar toifasiga kiradi.

Yong'inga qarshi kurash bu kompleks tashkiliy va texnik tadbirlar bo'lib, xodimlarni xavfsizligini ta'minlash, yong'inni samarali o'chirish, uni tez tarqalishini oldini olishdan iborat. Uchqun chiqaruvchi manbalar esa, elektron sxemalar, elektr ta'minot tarmoqlari, turli elektron uskunalarning nosozligi, qisqa tutashuv, yer bilan noto'g'ri biriktirish, ulashdagi nosozliklar hisoblanadi.

Zamonaviy komp'yuterlar va EHMLarida elektron sxemalar va detallar zich joylashganligi va kabellar hamda ulash simlari yaqinligi sababli bu xavf ancha yuqoridir. Bularndan elektr tokini oqishi himoya qavatini erishiga olib keladi. Komp'yuterlarda bu kabi ortiqcha issiqlik maxsus shamolatish bloki orqali chiqarib yuboriladi. Bu blokni ishdan chiqishi esa juda xavflidir. Bunday hollarda xavfsizlik choralarini ko'rish va qo'shimcha shamollatish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdi.

Ma'lumki, yong'in holatini komp'yuter choralarida qo'llanilgan qurilish materiallarining yong'inga chidamligini, umumiy mustahkamlikni ta'minlaydi. Kichik hajmdagi yong'in o'choqlarini bartaraf etish uchun binolarda yong'in krani, o't o'chirish moslamasi, quruq qo'm, asbestli ko'rpa va boshqalarda foydalaniladi.

Belgilangan talablarga javob beradigan sharoit yaratish, ish sifatini va unumdorligini oshirish, dastur ishini yaxshilash, nuqsonsiz ishlashni ta'minlash imkonini beradi.

Kompyuter qobig'i ochiq holatda bo'lganida uning oldida iloji boricha suyuqliklarni ko'tarib yurmaslik va uning ichiga qisqa to'qnashuvni oldini olish maqsadida metall buyumlarni qo'ymaslik kerak. Har xil radio to'lqinlarni o'zidan

chiqaruvchi asboblardan foydalanmaslik, nam joyga qo'yimaslik, turli xil fizik ta'sirlarni olidini olib o'ziga qulay va xalaqit bermaydigan joyga joylashtirish maqsadga muvofikdir.

Kompyuterni xonaga joylashtirayotganda shunga e'tibor berish kerakki, kompyuter germetik moslama emas, shunig uchun isitish trubalaridan uzoqrokda joylashtirish, havosi tez almashilib turiladigan joyga o'rnatishni hisobga olish kerak.

Muhim tomonlardan biri bo'lib, kompyuterning o'zi ustidagi profilaktika amallari hisoblanadi. Bunda kompyuterning ichidagi joylashgan kulerlarning havoni muntazam almashtirishi natijasida. Uning ichida ko'p miqdorda chang yio'iladi. Buni oldini olish uchun har qandaydir (changning yig'ilishiga qarab) vaqt mobaynida korpus ichini changyutgich bilan puflab turish maslaxat beriladi. Aks holda chang miqdorining ortishi va kuler moyining foyda bermasligi, protsessorning harorati ortishi natijasida ichki elementlarning ichki yonib ketishi va yong'in paydo bo'lish xavfiga olib kelishi mumkin.

Kompyuter monitorini ham joylashtirishda ham ko'p omillarni hisobga olish kerakdir. Agar olingan monitor suyuq kristalda qurilgan bo'lsa, unda uning kristallaridagi muvozanatni buzmaslik uchun uni namligi juda past bo'lgan sharoitga qo'yish talab etiladi. Hamda uning narxi hozirgi paytda qimmat bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak monitorni fizik ta'sirlardan uzoqroqqa qo'yish haqida o'ylab olish to'g'ri bo'lsa kerak.

Agarda tanlangan monitor trubkali bo'lsa unda bu displeyning joylashuvi oldingi monitorning joylashuvidan ham kattaroq joyni va omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Trubkali monitorning farqli tomonlariga uning o'zidan magnit va elektr maydonlarni chiqarishini ko'rsatsak bo'ladi. SHuning uchun uni joylashtirish paytida boshqa magnit yoki elektr to'lqin va maydonlarni chiqaruvchi asboblardan uzoqrokga qo'yilsa monitorning ko'rsatish sifati bir oz yuqorirok bo'lishi amerika olimlari tomonidan aniqlangan. Magnit yoki elektr to'lqin va

maydonlar odam sog'lig'i uchun ham zarar etkazishini hisobga oladigan bo'lsak unda trubkali monitoring kimningdir o'tirishi mumkin bo'lgan joyning to'g'risiga qo'ymaslik katta ahamiyatga egadir.

Kompyuter bilan ishlaydigan har bir odam uning bir qator salbiy ta'sirlarini sezishi mumkin. Ammo bunday ta'sirlardan ish kuni va operatorning ish o'rnini to'g'ri tashkil qilgan holda forig' bo'lish mumkin.

SHuning uchun doimiy ravishda EHM yonida o'tirib ishlaydigan shaxslar uchun ish o'rinlarini loyihalashtirish alohida e'tiborga molik masala hisoblanadi. Gavdaning tayanch maydonga bosimi teng taqsimlangan bo'lishi talab qilinadi. Bunday samaraga faqatgina kresloni inson gavdasining anatomik to'zilishiga to'la mos bo'lgandagina erishish mumkin. Hozirgi kunda sharnirlarga o'rnatilgan kreslolardan keng foydalanilmoqda. Bu element ish vaqtida gavdani boshqarishga hamda qisqa muddatli dam olishga imkon beradi.

SHuningdek, kompyuterni stol ustiga qo'yilayotganida uning joylashuvini tirsaklarning bo'sh turishi oyoqlarning bir-biriga xalaqit bermasligi, ko'rish burchagini to'g'ri tanlash, tovush moslamalarini to'g'ri o'rnatish, har xil pereferiya qurilmalarini to'g'ri joylashtirish va boshqa faktorlarni ham hisobga olish kerakdir. Umuman olganda, ish joyi iloji boricha qulay va sodda bo'lishi ham operator uchun katta imkoniyatlarni olishga yordam beradi.

Turli o'lchamdagi va hajmdagi grafik materiallar, kichik o'lchamlar, hajmini ortishi natijasida ko'zda surunkali jiddiy kuchlanish yoki zo'riqish sodir bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlar ko'zni ko'rish qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Belgilangan me'yorlarga binoan foydalanuvchi operator ko'zi bilan ekran oralig'idagi masofa 600-700 mm bo'lishi lozim, Ayrim hollarda harf va raqamlar kattaligini e'tiborga olgan holda bu masafani 500 mm bo'lishiga ruxsat beriladi.

Ko'zni zo'riqishini kamaytirish maqsadida har 1 soatda 15 minutlik tanaffus qilish tavsiya etiladi[23].

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishida qaralgan masalalardan quyidagi natijalar va xulosalarga kelimiz:

- “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan barcha materiallarni yig’ildi;
- “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanidan yig’ilgan materiallarni Moodle platformasiga joylashtirish uchun tayyorlash shakllantirildi;
- O’quv kursini sahifasini loyihalasi ishlab chiqildi;
- Moodle platformasida o’quv kursi sahifasi yaratildi va mualliflari va foydalabuvchilari ro’yxati shakllantirildi;
- O’quv kursini yaratish tavsifi to’liq keltirildi;
- Yig’ilgan hamda shakllantirilgan fan resurslari Moodle platformasiga joylashtirildi;
- Nazorat uchun yozma, og’zaki hamda test savollari joylashtirildi;
- Test savollari har bir mavzu bo’yicha alohida kiritilib o’zlashtirishi uchun joylashtirildi;
- O’quv kursi uchun foydalanuvchilar guruhini yaratildi;
- O’quv kursidan foydalanish yo’riqnomasini keltirildi;
- O’quv kursini yaratish va undan foydalanishda bajarilgan ishlar ilovada batafsil keltirildi;
- Yartilgan o’quv kursidan axborot texnologiyalar va texnika sohasidagi oliy o’quv yurtlarida “Maxus fanlarni o’qitish metodikasi” fanini mustaqil o’rganishda foydalanish mumkin.

Yaratilgan o’quv kursidan foydalanish uchun foydalanuvchi albatta filial administratoridan Login va Parolni ro’yxatdan o’tkazib olgan bo’lishi shart.

Filialda o’qitiladigan barcha fanlardan elektron kursni Moodle platformasiga joylashtirishni taklif qilaman. Platformaga joylashtirilgan fanlardan talabalar o’zlari istagan vaqtda foydalanishi mumkin bo’ladi, bu esa fanlarni o’zlashtirish darajasini samarali oshishiga va ta’lim sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni **2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi**
2. Mirziyoev SH.M. "Ilm-fan yutuqlari — taraqqiyotning muhim omili". Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – T.: «O'zbekiston», 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli Farmoni
5. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik // Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.
6. Педагогика. Ўқув қўлланма // А.Мунавваровнинг умумий таҳрири остида. - Тошкент, «Ўқитувчи», 1996.
7. Зиёмуҳаммедов Б. Маърифат асослари. - Тошкент, «Чинор ENK», 1998.
8. Мавлонова Р. ва бошқ. Педагогика. - Тошкент, «Ўқитувчи», 2001.
9. Исмаилова З. Педагогикадан амалий машғулотлар - Тошкент, «Фан», 2001.
10. Общая педагогика. Под ред. В.А.Сластенина. В 2 ч. - Москва, «Владос», 2003.
11. Давлетшин М.Г., Тўйчиева СМ. Умумий психология Т.: ТДПУ, 2002. - 202 б.
12. Каримова В.М. Психология. Т.: Шарк, 2000. -256б.
13. Иванов П.И., Зуфарова М.Е. "Умумий психология" Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2008. -480б.
14. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. -Т.: Янги аср авлоди. 2007. -327 б.

15. Жалилова С.Х., Хайдаров Ф.И. Халилова Н.И. Касб психологияси. -Т.: ТДПУ. 2010.-127 б. Трайнев В.А., Гуркин В., Трайнев О.В. Дистанционное обучение и его развитие - Москва, 2006. - 196 с.
16. Основы деятельности тьютора в системе дистанционного образования, Издательство: Дрофа, 2007 г. - 592 с.
17. Гаевская Е.Г. Система дистанционного обучения MOODLE: методические указания для практических занятий: Учебное пособие. — СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. — 26 с.
18. Мясникова Т.С., Мясников С.А., Система дистанционного обучения MOODLE.- Харьков, 2008.-232 с.
19. Информационный портал Moodle. <http://moodle.org/>
20. Hayot faoliyatu havfsizligi. A. Qudratov, T. G'aniyev va b., Toshkent, Aloqachi, 2005 y.

Internetdagi manbalar:

1. <http://www.intuit.ru>
2. www.tuit.uz
3. www.samtuit.uz
4. www.google.ru
5. www.moodle.samtuit.uz